ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 22.06.2025 · Accepted: 09.08.2025 · Published: 31.08.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/gge8sc34

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(4), 2025
www.jnculture.uz

O‘zbekistonda estrada va milliy estradaning shakllanishi

(The formation of popular stage art and national estrada in Uzbekistan)

Iskandar Baxtiyarov

The Institute of National Variety Art named after Botir Zakirov under the State Conservatory of Uzbekistan, Almazar Street 1
Uzbekistan/Tashkent

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda estrada san’atining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy taraqqiyoti ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Qadim zamonlardan boshlab qo‘shiqchilik san’ati xalq ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutib kelgan bo‘lib, ma’naviy tarbiya va estetik didni shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. XX asr o‘rtalaridan boshlab o‘zbek estradasi jadal rivojlanib, xalqning milliy musiqiy qadriyatlariga tayanib, zamonaviy musiqiy shakllar bilan uyg‘unlashdi. Maqolada Botir Zokirov kabi yirik san’atkorlarning ijodiy merosi, mustaqillik yillarida estrada san’atini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari ham batafsil yoritiladi. Tadqiqot davomida estrada ijrochiligi bo‘yicha yaratilgan ilmiy manbalar, folklor va xalq musiqasi bilan aloqadorlik, yangi vokal-ansambl shakllari hamda zamonaviy texnologiyalar ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy estrada, estrada shakllanishi, professional qo‘shiqchilik, musiqa, xalqchilik, milliylik g‘ururi.

Abstract

This article examines the formation and development of variety (estrada) art in Uzbekistan, highlighting its historical foundations, cultural background, and contemporary progress. Since ancient times, the art of singing has played a vital role in shaping the spiritual, aesthetic, and moral values of society. In the mid-20th century, Uzbek estrada emerged as a distinct musical genre, integrating elements of traditional folk heritage with modern stage performance. The paper pays particular attention to the creative legacy of Botir Zakirov and subsequent generations of artists who contributed to the establishment of national estrada. The study also analyzes state policies and presidential decrees implemented after Uzbekistan’s independence, which supported the advancement of music and promoted patriotic songs. Moreover, the article explores the pedagogical aspects of estrada, its ties with folk traditions, the creation of vocal-instrumental ensembles, and the incorporation

of new technologies. The conclusion emphasizes that national estrada has become one of the defining features of Uzbekistan's cultural identity, representing the country both domestically and on the international stage.

Keywords: national estrada, formation of estrada, professional singing, music, folk character, pride of national identity

Аннотация

В статье рассматривается становление и развитие эстрадного искусства в Узбекистане, его исторические предпосылки, культурные основы и современное состояние. Автор подчеркивает, что искусство песни сопровождало человека с древних времен, играя ключевую роль в духовном, идейном и нравственном воспитании. В XX веке узбекская эстрада оформилась как самостоятельное направление, органично сочетая элементы национальной музыкальной традиции и современные формы сценического искусства. Особое внимание уделено творчеству Ботира Закирова и других выдающихся исполнителей, внесших вклад в формирование национальной эстрады. В работе анализируются государственные программы и указы, направленные на поддержку искусства в годы независимости, а также роль международных музыкальных фестивалей в популяризации узбекской эстрады. В статье освещается педагогический и культурный потенциал жанра, связь с народным фольклором, формирование ансамблей и симфонических оркестров. Делается вывод, что узбекская национальная эстрада не только укрепляет культурную идентичность народа, но и становится важным фактором культурного диалога на международной арене.

Ключевые слова: национальная эстрада, формирование эстрады, профессиональное певческое искусство, музыка, народность, гордость национальной идентичностью

KIRISH

O‘zbekiston san’ati o‘zining boy tarixi, betakror ohanglari va madaniy an’analari bilan ajralib turadi. Ma’lumki, qo‘shiqchilik san’ati qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirgi kunda ham o‘z rivojini davom ettirayotgan ijodiyot turidir. Qo‘shiq azal-azaldan insoniyat hayotida hamroh bo‘lib kelgan va insonning ma’naviy va madaniy, g‘oyaviy va axloqiy tarbiyasida bosh tarbiyachi rolini o‘tagan. Barkamol inson, komil inson tarbiyasida musiqaning, qo‘shiqning kuchi va ahamiyati kattadir. O‘zbekiston mustaqilikka erishgach, davlatimiz rahbariyati tomonidan qo‘shiqchilik san’ati rivojiga, ayniqsa Vatanparvarlik ruhidagi

qo‘shiqlarga katta e’tibor berilmoqda. 1996-yildan beri O‘zbekistonimiz bo‘ylab keng qanot yozgan “O‘zbekiston – Vatanim manim”, “Yagonasan, muqaddas vatan”, “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali kabi tanlovlar, Mustaqillik, Navruz va boshqa davlat konsert tadbirlari dasturiga kiritilgan vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar ijrosi shuning isbotidir.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, xalqimiz, xususan, yosh avlod ongida milliy estrada san’ati orqali milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish asosiy vazifa deb belgilandi.[1] Dunyo miqyosida estrada qo‘shiqchilik san’ati kundan- kunga rivojlanib, yangi turli oqimlar va ko‘rinishlarni kashf etmoqda, estrada osmonida yangi yulduzlar paydo bo‘lmoqda. Bu yangicha ko‘rinishlar Respublikamizning estrada san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Biz o‘zbek estrada qo‘shiqchilik san’atiga umumiy baho bersak, aytish mumkinki, milliy estradamizning bugungi ko‘rinishi, kechagi tarixi bu sohada katta ishlar qilinganidan dalolat beradi. O‘zbek miliy estradasiga asos solgan taniqli san’atkor Botir Zokirovdan boshlab, bugungi bu sohaning kenja avlodi ham jahondagi eng katta sahnalarda jahon qo‘shiq shinavandalarini qoyil qoldirishga erishganlar va erishmoqdalar. Estrada san’ati kundan -kunga rivojlanib bormoqda.

Estrada san’ati O‘zbekistonda XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllana boshlagan bo‘lsa-da, milliy Estrada yo‘nalishi aynan o‘zbek xalqining musiqiy didi, milliy qadriyatlari va urf-odatlariga asoslangan holda rivoj topdi. Bugungi kunda estrada san’ati nafaqat ichki madaniy hayotda, balki xalqaro miqyosda ham O‘zbekiston san’atining yuzi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi yoshlarimizning aksariyati milliy Estrada janrdagi qo‘shiqlarni sevib tinglashmoqda. Mustaqillik yillaridan so‘ng o‘zbek estradasi milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish yo‘lidan bordi. Milliy estrada atamasi aynan shu davrda keng qo‘llanila boshladi va bu yo‘nalishda ijod qiluvchi san’atkorlar an’anaviy xalq musiqasi unsurlarini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma;ruzasi.Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 4-avgust. №153 (6847)

zamonaviy sahna san'ati bilan sintez qilishga intildilar. Milliy estrada o'zbek xalqining madaniy o'zligiga sodiqligini saqlagan holda, yosh avlodga zamonaviy ko'rinishda taqdim etiladigan musiqiy ifoda vositasiga aylandi. XXI asrda O'zbekiston madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli islohotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar, xususan, "Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] va "O'zbekiston Respublikasi xalq ijodiyoti va milliy madaniy merosini yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi [2] hujjatlar milliy ijrochilik maktablari, xususan, xalq cholg'ulari, milliy estrada san'atining ham dolzarb masalalarini chuqur ilmiy-pedagogik asosda o'rganish va yangilash zaruratini ilgari surmoqda. O'zbekiston musiqa sahnasi bugungi kunda Yevropa va Sharq madaniyatining zamonaviy yo'nalishlari an'analarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos hodisadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda estrada ijrochiligi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar zamonaviy musiqiy tafakkur, texnologik muhit va pedagogik yondashuvlar kesishgan nuqtalarda shakllanayotgan yangi tendensiyalarni ochib bermoqda. O'zbek estrada san'ati va milliy estrada yo'nalishining shakllanishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu sohaning tarixiy, musiqiy va madaniy jihatlarini chuqur o'rganish uchun asos bo'lmoqda. O'zbekiston estrada san'ati va milliy estrada yo'nalishining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'ziga xos bosqichlarda rivojlandi. O'zbek estrada san'ati va milliy estrada yo'nalishi haqida yozilgan ilmiy manbalar, maqolalar ushbu yo'nalishning shakllanish jarayonini chuqur o'rganishga imkon beradi. Adabiyotlar tahlili estrada san'atining tarixiy rivoji, uning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy roli, milliy musiqiy an'analar bilan bog'liqligi va o'ziga xoslik masalalariga e'tibor qaratadi. M.Umarov "Estrada

va ommaviy tomoshalar tarixi” nomli qo‘llanmasida estrada san’ati va ommaviy tomoshalar tarixiga, ularning ilk unsurlariga, rivojlanish bosqichlariga, san’at turi darajasiga ko‘tarilishi va kamol topish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, adabiyot so‘z san’ati, notiqlikning ommaviy tomoshalarda tutgan o‘rniga alohida urg‘u berilgan. R.Nosirov “Estrada san’ati” Ustoz –Shogird nomli qo‘llanmasida Botir Zokirov, Farrux Zokirov, Ozodbek Nazarbekov singari mashhur estrada xonandalari ijro etgan qo‘shiqlari, ijodiy faoliyatlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.. Bu qarash estrada ijrochiligining badiiy imkoniyatlarini kengaytirishda, yosh ijrochilarning ijodiy qobiliyatini oshirishda, musiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston musiqa madaniyati ko‘p yillik tarixga ega. Hozirgi kunda uning yo‘nalishlari va janrlari kengayib bormoqda. Har bir san‘atning o‘z asosi bo‘lganidek, o‘zbek estradasining ham asosi professional qo‘shiqchilikka asoslangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq orasida «estrada», «estrada konsterti», «estrada san‘ati» kabi atamalar iste‘molga kirib kela boshladi. Bu Turkiston o‘lkasining shaharlariga Rossiyadan gastrolga kelgan konstert guruhlarining chiqishlari bilan bog‘liq edi. XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda tashkil etilgan «Ashula va raqs guruhi», «Mashshoqlar to‘dasi», «Musiqiy etnografik ansambl»larning xalq ommasiga ko‘rsatgan tomoshalarini «konsert», «estrada konserti» deb e‘lon qilish asta-sekin odat tusiga kirdi. Shu davrdan boshlab musiqachilar ahli va xalq orasida «konsert», «estrada», «ansambl» kabi atamalar xalq orasida ommalasha bordi. 1940-yil Toshkent shahrida M. Jolkov rahbarligida «Myuzik xoll» estrada jamoasi va O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida 1942-yili estrada ansambili, 1944-yili N. Zinin rahbarligida «Simfo-jaz orkestri» tuzilgan. Ushbu ansambllarning ijro dasturi asosan rus kompozitorlarining qo‘shiq va cholg‘u musiqalaridan tuzilgan edi. Estrada san‘ati O‘zbekistonda 1950-yillardan boshlab rivojlandi. Shu kungacha san‘atning bu yo‘nalishida juda katta

yutuqlarga erishilgan. 1958-yili O‘zteleradio qoshida estrada orkestri tashkil qilindi. Kompozitorlar Sh.Ramazanov, I.Akbarov, E.Salixov, M.Leviyev, M.Burxonov, E.Qalandarov, V.Milov va boshqalar avval xalq folklor qo‘shiqlarini estrada yo‘nalishiga moslashtirib, keyinchalik esa o‘zlari shu yo‘nalishda ijod qila boshladilar. Ularning yozgan qo‘shiqlarini Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Yunus To‘rayev, Ra‘no Sharipova, Muhabbat Shamayeva va boshqa xonandalar kuylab ijod etganlar. Bu paytda mualliflik qo‘shiqlari bobida yetuk asarlardan biri Botir Zokirov ijrosidagi Mutal Burxonovning “Maftun bo‘ldim” asari bo‘ldi. Uning o‘sha yillarda ijro qilgan “Go‘zal qiz”, “Arab tangosi”, “Muhabbat”, “Jayron” kabi turli millat qo‘shiqlari bugungi kun uchun ham namunaviy bo‘lib turgan yangicha ohang tizimi milliy estrada qo‘shiqchiligidagi noyob topilmalardandir. Hozirda turli uslubiy yondoshish orqali ushbu qo‘shiq ijrosiga yosh estrada qo‘shiqchilarimiz murojaat etayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Eng muhimi o‘zbek estrada musiqasi ijrochiligi amaliyotida vokal-cholg‘u ansambllari tuzila boshlangan, estrada xonanda va sozandalarining yangi avlodi tarbiyalangan. Estrada san’atida yangi guruhlar va ijrochilar avlodi shakllangan. Buning zaminida albatta o‘zbek estrada simfonik orkestrlarining samarali faoliyati, respublikada zamonaviy estrada musiqa san’atini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbek estrada musiqasi shakllanishi jarayonida an‘anaviy xalq musiqa namunalari muhim zamin bo‘lgan. Bunda, asosan, ularning raqsbopligi, yengil ohang usullarida ijro etilgani qo‘l kelgan. Ayni payta bu holat o‘zbek estrada musiqasining milliylik asosini ham ta‘minlovchi muhim vositalardan biri bo‘ldi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. O‘zbek milliy estrada qo‘shiqchiligi tamal toshini qo‘ygan Botir Zokirov va uning izdoshlari, zamondoshlari Yunus To‘rayev, Staxan Rahimov, va boshqalar o‘zbek estradasi sahnasida milily kuylash uslubini sintezlashtirish natijasida uni shaklan va mazmunan uyg‘unlashtirishga erishganlar.

XULOSA

O‘zbekistonda estrada san’ati uzoq tarixiy jarayon asosida shakllandi va rivojlandi. Bugungi kunda milliy estrada O‘zbekiston madaniyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Mustaqillik yillarida estrada san’ati keng rivojlanib, bugungi kunda ham xalq orasida katta e’tibor va talabga ega bo‘lmoqda. Milliy estrada san’ati kelgusida ham o‘zbek madaniyatining ajralmas va zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Umarov, M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. — Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009.
2. История зарубежной музыки: в 6 вып. — М. ; СПб., 1986–2001. — Вып. 1. — 535 с. ; Вып. 2. — 227 с. ; Вып. 3. — 553 с. ; Вып. 4. — 529 с.; Вып. 5. — 448 с.
3. Karomatov, F. M. O‘zbek xalq musiqa merosi. XX asr : v 2 kn. — Tashkent, 1978–1982. — Kn. 1.
4. Ibragimov, O. O‘zbek musiqa ijodi. — Tashkent, 1990.
5. Mannopov, S., Karimov, A., Kurbonov, A. B., Dilobar, J. The emergence and development of music // Archive of Conferences. — 2022. — February. — S. 49–52.
6. Абдусатторов, А. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments // International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. — 2020. — Т. 2, № 11. — стр. 28–30.

References

1. Umarov, M. *Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi* [The History of Estrada and Mass Performances]. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. (in Uzbek)
2. *Istoriya zarubezhnoy muzyki* [History of Foreign Music]. 6 vols. Moscow; St. Petersburg, 1986–2001. Vol. 1, 535 pp.; vol. 2, 227 pp.; vol. 3, 553 pp.; vol. 4, 529 pp.; vol. 5, 448 pp. (in Russian)
3. Karomatov, F. M. *O‘zbek xalq musiqa merosi. XX asr* [The Musical Heritage of the Uzbek People. 20th Century]. Vol. 1. Tashkent, 1978–1982. (in Uzbek)

4. Ibragimov, O. *O‘zbek musiqa ijodi* [Uzbek Musical Creativity]. Tashkent, 1990. (in Uzbek)
5. Mannopov, S., A. Karimov, A. B. Kurbonov, and J. Dilobar. “The Emergence and Development of Music.” *Archive of Conferences*, February 2022, 49–52. (in English)
6. Abdusattorov, A. “About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments.” *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development* 2, no. 11 (2020): 28–30. (in English)